

**RAQAMLI ADOLAT SARI: MILLIY QONUNCHILIKDA
LEGALTECH VOSITALARIDA TARTIBGA SOLISH**

Djamolova Dono Jamshid qizi

Toshkent davlar yuridik

universiteti talabasi

e-mail:djamolovadono1@gmail.com

Annotatsiya. *LegalTech* milliy qonunchilikda o`zining sezilarli o`rniga ega. Nafaqat elektron sud ishlaridan tortib, balki sun'iy intellektga asoslangan huquqiy yordam tizimlarigacha O'zbekistonning huquq tizimida jiddiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Lekin *LegalTech*ning huquqiy bahosi hamda javobgarligi bo'yicha milliy qonunchilikda bo'shliqlar mavjud. Ushbu maqola ana shu bo'shliqlarni qanday to'ldirish, bu bo'shliqlar aslida nimani anglatishi, shuningdek, xalqaro tajribalarga asoslanib bu muammoga yechim beradi hamda metod sifatida normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, xorijiy *LegalTech* tajribasining qiyosiy o`rganilishi hamda amaldagi milliy tartibotning mosligini baholash metodlaridan foydalaniladi. Tadqiqot natijalari *LegalTechni* milliy qonunchilikda tartibga solish bo'yicha aniq yechimlarni taklif qiladi. Maqola bu mavzuning dolzarbligini ko'rsatish bilan bir qatorda, uni yanada batafsil o'rganishga chorlaydi.

Kalit so'zlar: *LegalTech*, sun'iy intellekt, milliy qonunchilik, xalqaro tajribalar, raqamli transformatsiyalar, yuridik maslahat, avtomatlashtirish, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik.

Kirish.

Hammamiz bilganimizdek hozirgi zamonda ham bir jabhada raqamli transformatsiyalarning o`rni bo`lakcha. Bir necha o`n yilliklar davomida sud jarayonlarida olib borilgan islohotlarga turtki bo`lgan yangi va kuchli elektron kashfiyot vositalari targ`ib qilinayotgan bir paytda, ularning asta-sekin yo`qolishi haqida gapirib bo`lmaydi. Aksincha, huquqiy texnologik vositalar — jumladan, elektron kashfiyot vositalari, huquqiy tadqiqot va tahlilni amalga oshiradigan,



shuningdek, ish natijalarini bashorat qiluvchi vositalardan foydalanish tobora ortib bormoqda¹. Shu jumladan bu tizim yuridik xizmatlarni amalga ham oshirishda foydalanilmoqda.

LegalTech – yuridik xizmatlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish, sun'iy intellekt tizimiga asoslangan maslahat tizimlari hamda smart-kontrakt tizimi orqali tezkor, samarali va ma'lumotlarga boy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi². Shu bilan birga raqamli transformatsiyalar sud tizimi ishlarini ososlashtiradi, advokatlik faoliyatini samarali qiladi va fuqarolarga huquqiy xizmatlarni kengaytirib beradi.

Huquqiy texnologiyalar iyerarxiyasining tepasida, birinchi navbatda, qonuniy foydalanishni ta'minlaydigan va qonun bilan bevosita va chuqur bog'langan texnologiyalar mavjud. Ushbu texnologiyalar buni qonuniy qarorlar qabul qilish, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qonunni qo'llash yoki ehtimol qonunning o'zini yangilash orqali amalga oshiradi. Ba'zilar bu "haqiqiy" huquqiy texnologiya deb hisoblashlari mumkin, chunki ular qonun bilan chambarchas bog'liq. Huquqiy texnologiyalar haqidagi so'nggi hayajonlarning aksariyati huquq institutini yoki u bilan o'zaro munosabatimizni o'zgartirish uchun chuqur yuridik texnologiya va'dasi atrofida aylanadi³. Global miqyosda LegalTech vositalari hujjatlarni tahlil qilish, sud ish faoliyatini sifatini oshirish, huquqiy tavsiyalar berishi jarayonlari O'zbekiston milliy qonunchiligidan ancha oldinda ketgan. Buyuk Britaniya va AQSHda AI yordamida ishlaydigan yuridik maslahat platformalari, elektron shartnomalar va smart-kontraktlar keng qo'llanilmoqda⁴. Shuningdek, Estoniyada ham sud ishlari va huquqiy jarayonlarning ko'pi sun'iy intellekt vositalari orqali amalga oshirilmoqda. Bu davlatning huquq tizimiga yordamchi vosita sifatida asosiy rol o'ynamoqda. Shu

¹ DAVID FREEMAN ENGSTROM + & JONAH B. GELBACH + (March, 2021). ARTICLE: LEGAL TECH, CIVIL PROCEDURE, AND THE FUTURE OF ADVERSARIALISM. University of Pennsylvania Law Review, 169, 1001. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=analytical-materials&id=urn%3acontentItem%3a62XB-6XX1-JNS1-M00X-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>

² Salmerón-Manzano, E. (2021). Legaltech and Lawtech: Global Perspectives, Challenges, and Opportunities. *Laws*, 10(2), 24. <https://doi.org/10.3390/laws10020024>

³ Ryan Whalen, Defining legal technology and its implications, *International Journal of Law and Information Technology*, Volume 30, Issue 1, Spring 2022, Pages 47–67, <https://doi.org/10.1093/ijlit/eaac005> [google scholar]

⁴ Hook, A., Nyatanga, L., Canepa, C., & Shaw, G. (2019). *The use and regulation of technology in the legal sector beyond England and Wales*. Legal Services Board. <https://www.legalservicesboard.org.uk/wp-content/uploads/2019/07/International-AH-Report-VfP-4-Jul-2019.pdf>



bilan birga bu yangi texnologiyalar xalqaro miqyosda ham bir qancha muammolar keltirib chiqarmoqda: alqoratmik xatoliklar, ma'lumotlar xavfsizligi hamda ularni tartibga solish jarayonidagi noaniqliklar⁵.

O'zbekiston milliy qonunchilik tizimida ham sud huquq tizimi, elektron hukumat hamda boshqa huquqiy tizimlarini amalga oshirish islohotlariga raqamli texnologiyalar o'z ta'sirini o'tkazgan. Hamda bu texnologiyalar ortida bir qator xavf jihatlari mavjud. Bu xavflar ortida javobgarlik jihati mavjud. Javobgarlik jihatlari asosiy tartibga soladigan asosiy hujjat hali **«Milliy qonunchilik»** tizimida mavjud emas. Ammo qisman bir qancha hujjatlarda bayon etib ketilgan. **Birinchidan, «Elektron hukumat to'g'risida»**gi qonun – bu qonun davlat xizmatlarini raqamli tizimda yaratishga qaratilgan. Bu qonunning o'ziga xos jihati shundan iboratki, ushbu qonun asosida «my.gov» «e.sud» «e.notarius» kabi saytlar yaratilgan. Bu saytlar orqali yuridik yordamlarni onlayn olish, fuqarolar o'zlarining murojaatlarini elektron yuborish hamda ushbu jarayonni avtomatlashtirish imkonini yaratdi. **Ikkinchidan, «Elektron raqamli imzo to'g'risida»**gi qonun – elektron hujjat va ma'lumotlarga yuridik kuch berish imkon sifatini oshiradi. Qonunning 4-moddasida belgilab o'tilgan norma ya'ni **«Bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga rioya etilgan taqdirda, elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo qog'oz hujjatga qo'lda shaxsan qo'yilgan imzo bilan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi, agar:**

elektron raqamli imzoning haqiqiyligi tasdiqlangan bo'lsa;

elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash paytida yoxud imzolash paytini belgilovchi dalillar mavjud bo'lganda elektron hujjatni imzolash paytida amalda bo'lsa;

elektron raqamli imzodan elektron raqamli imzo kalitining sertifikatida ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanilayotgan bo'lsa.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shartlarga bir vaqtning o'zida rioya etilgan taqdirda, yuridik shaxsning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan elektron hujjat yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan qog'oz

⁵ Law Society Journal. (2022). *Regulating LegalTech: Should we, and if so, how?*
<https://lsj.com.au/articles/regulating-legaltech-should-we-and-if-so-how/>



hujjatga tenglashtiriladi»⁶. Ushbu norma shaxslarga bir qancha ishlarini yengillashtiradi, masalan, pasportining asl qog'oz nusxasi qolib ketgan shaxslar uni «My.gov» sayti orqali elektron shaklini taqdim etish orqali o'z muammolarini hal qilishlari mumkin. Bu esa huquqiy ishlarni yanada samarali hamda shaffof holda amalga oshiradi. **Uchinchidan, «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»**gi qonun – davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarga hujjat almashinuvini elektron shaklda yuritishga imkon yaratdi. Bu raqamli platformalarda ish yuritish, sud jarayonlarida hujjat topshirish hamda tahlil qilish imkonini yaratadi.

To'rtinchidan, LegalTech degan tushuncha zamirida boshqa tushunchalar kabi kiberxavfsizlik tushunchasi ham asosiy rol o'ynaydi. Kiberxavfsizlik sohasida davlatning bir qator majburiyatlari yotadi hamda ushbu majburiyatlarni xalqaro tajribadan andoza olgan holda amalga oshira oladi. Bunda davlat mazkur sohani tartibga solishi uchun unda yechim bera oladigan qonunchilik tizimi mavjud bo'lishi talab etiladi. Masalan, Qonunchilik palatasi 2022-yil 25-fevralda qabul qilgan, Senat 2022-yil 17-martda ma'qullagan **«Kiberxavfsizlik to'g'risida»**gi qonunni ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq. Mazkur qonunning 4-moddasida ham davlat o'z kiberxavfsizlik sohasini xalqaro hamkorlikni amalga oshirishi belgilab o'tilgan. Shu bilan birga ushbu qonunning 32-moddasida **«Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan kiberxavfsizlik sohasidagi ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni amalga oshirish hamda muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining kiberxavfsizligini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek kiberxavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq davlat xaridlarini amalga oshirishda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotga ustuvorlik berish vositasida amalga oshiriladi.»⁷** ushbu norma belgilangan. Mazkur normadan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyoti yo'lida befarq emas, balki taraqqiyotini raqamli texnologiyalar xavfli

⁶ O'zbekiston qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // Elektron raqamli imzo to'g'risida <https://lex.uz/docs/-6234904>

⁷ O'zbekiston qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // Kiberxavfsizlik to'g'risida <https://lex.uz/docs/-5960604>



girdobida tushib qolmasligi uchun o`zning qo`lidan kelgan barcha amallarni amalga oshirmoqda. Mazkur amallar nafaqat davlat taraqqiyoti uchun, balki fuqarolar hamda jamiyatning xavfsizligiga qaratilgan. **Beshinchidan** esa eng asosiy hamda dolzarb muammolarga yechim bo`la oladigan hujjat «**Shaxsga doir ma`lumotlar to`g`risida**»gi qonun – ushbu qonunning asosiy maqsadi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini, shaxsiy hayot daxlsizligini, axborot xavfsizligini ta`minlashdir. Ushbu qonunga muvofiq ma`lumotlar shaxs roziligisiz uchinchi shaxsga berilmasligi, ushbu ma`lumotlar aniq va shaffof tarzda yangilanib turilishi hamda ushbu ma`lumotlar to`g`ri maqsadda foydalanishi lozimligi belgilab berilgan. Aks holda shunday noaniqlik tug`ilsa javobgarlik keltirib chiqaradi. **O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida** fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligi belgilab o`tilgan. Shuningdek, Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 46-moddasi, «**Shaxsga doir ma`lumotlar to`g`risida**»gi qonunning 14-moddasi, «**Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to`g`risida**»gi qonunning 13-moddasi, Jinoyat kodeksining 141²-141³-moddalari hamda boshqa qonunchilik hujjatlarini keltirishimiz mumkin. Ushbu sanksiyalarga talab raqamli texnologiyalar jadallik bilan ortmoqda. Chunki ushbu texnologiyalar milliy qonunchilikka kirib kelishi bilan bir qatorda uning ortidan raqamli transformatsiyalarning xavflari ham tezda yetib keldi. Ushbu xavflarni tartibga solish uchun asosiy qonun mavjud bo`lmaganligi bois yuqorida keltirilgan qonunchilik normalari bilan tartibga solish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga huquq tizimining boshqa sohalari ya`ni LegalTech vositalarini huquqiy maqomi, litsenziyalash tartibi, algoritmik javobgarlik va ma`lumotlar xavfsizligi bo`yicha normativ baza hali shakllanmagan. Shu sababli ushbu maqolaning maqsadi – milliy qonunchilikda LegalTech vositalarini xalqaro tajribalarga tayangal holda mukammal tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Qo`shimcha ma`lumot sifatida tadqiqot izlanish natijalariga ko`ra, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Singapur kabi davlatlarda ham ma`lumotlarni himoya qilish masalalari milliy axborot xavfsizligi siyosati doirasida tartibga solinadi. Bu mamlakatlarda “PrivacybyDesign” (maxfiylikni dastlabki bosqichda



rejalashtirish) tamoyili qo'llanilib, har bir yangi elektron tizim yoki platforma ishlab chiqilishidan oldin ma'lumotlar xavfsizligi choralari texnik jihatdan loyihalash jarayoniga kiritiladi. Shuningdek, Koreya Respublikasida shaxsiy ma'lumotlarning ruxsatsiz tarqatilishi uchun kompaniyalarga yillik daromadining 3–5 foizigacha jarima qo'llanilishi belgilangan⁸, bu esa javobgarlik mexanizmini amaliy jihatdan kuchaytirgan.

Uslublar

Ushbu tadqiqotda LegalTech vositalarining milliy qonunchilikda tartibga solinishi, xavfsizlik jihatlari hamda xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlilni o'rganish maqsadida bir necha ilmiy metodlarning kompleks yondashuvi qo'llanildi. Avvalo, **normativ-huquqiy tahlil** metodi asosida O'zbekistonning amaldagi qonunchilik hujjatlari – «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi, «Elektron hukumat to'g'risida»gi, «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori tizimli o'rganildi. Ushbu qonunchilik normalari milliy qonunchilik normalaridagi bo'shliqlarni tom ma'noda bo'lsa ham to'ldirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu tadqiqotda **qiyosiy-huquqiy** metoddan foydalanilgan. Xususan, Buyuk Britaniya, AQSH, Estoniya va Albaniya tajribalariga to'xtalib, tahlil qilindi hamda ushbu mamlakatlarda LegalTech vositalaridan huquq tizimida foydalanish usullari, ma'lumotlar xavfsizligida sun'iy intellektdan foydalanish jarayonlari o'rganib chiqildi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning Legal Services Board tomonidan tayyorlangan hisobot va AQSHda Simshaw tomonidan tartibga solingan milliy model asosiy manba sifatida e'tirof etilgan. Estoniyada ham huquq tizimining asosiy sohalari AI orqali amalga oshirilayotganligi hamda Albaniya davlatida vazir etib sun'iy intellekt tayinlanganligi muhim amaliy misollar tariqasida yoritilgan.

Tadqiqotda ilmiy manbalarni oshirish maqsadida xalqaro ilmiy adabiyotlarni **kontent-tahlil qilish** metodidan foydalanildi. LegalTechning milliy qonunchilikda

⁸ Baxtiyor o'g'li, D. O. (2025). ELEKTRON TIJORATDA MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO TAJRIBA. *SHOKH LIBRARY*, 1(10).
<https://wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/4905/5342> [Google scholar]



rivojlanishi, global texnologik xavflarga tayyor turishi, etik risklari haqida 10 dan ortiq xalqaro ilmiy maqolalar o'rganib chiqildi. Salmeron-manzano, LSJ algoritmik javobgarlik, Simshaw AI yuridik xizmatlarining regulyatsiyasi, Savenko raqamli iqtisodiyotda LegalTechning huquqiy o'rni haqidagi tahlillar ushbu tadqiqot uchun asosiy manba bo'lib xizmat qildi

Shuningdek, tadqiqotda **analitik-sintetik** metoddan foydalanildi. Ushbu metod orqali xalqaro tajribalar va ilmiy adabiyotlardan olingan umumlashtirilib, barcha jihatlari tahlil qilindi. Xususan, bu yondashuv natijasida LegalTech tizimi umumlashtirilib, muammoli bo'shliqlari aniqlandi, algoritmik javobgarlikning aniq belgilab qo'yilmaganligi, smart-kontraktarning yuridik maqomiga oid normalar mavjud emasligi, shaxsga doir ma'lumotlar qayta ishlanganda LegalTech vositalariga moslashtirilmagan talablar borligi aniqlandi.

Yakunda olingan ilmiy va normativ ma'lumotlar asosida **empirik tavsiyalar ishlab chiqish** metodi qo'llanildi. Mazkur metod LegalTech vositalarini milliy qonunchilikda qo'llash bo'yicha aniq amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida LegalTech sohasi uchun alohida qonun ishlab chiqish, yuridik startaplar uchun «**Regulyator sandbox**» tizimini joriy qilish, universitetlarda LegalTech sohasi uchun ushbu texnologiyaning xavfli shiddatiga qarshi chiqa oladigan kadrlarni tayyorlash, shaxsga doir ma'lumotlarni AI tizimida ishlashiga moslashtirish kabi takliflar ilmiy asoslarga ko'ra shakllandi.

Tadqiqotning ko'p tarmoqli tabiati mavjud ekanligini inobatga olgan holda, **interdisiplinar yondashuv**dan ham foydalanilgan. Mazkur LegalTech vositalari faqat huquq bilan emas, balki axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt etikasi va boshqa sohalar bilan bog'liq bo'lganligi bois huquqiy tahlil IT-texnik, etik va boshqa yondashuvlar bilan boyitib ketildi.

Natijada ushbu metodlar kompleks qo'llanilganligi tufayli tadqiqot nazariy usulda asoslangan, amaliy jihatdan tadbiq etishga tayyor hamda bu xalqaro standartlarga qo'llashga tayyor.



Natijalar

Mazkur olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, O'zbekistonning milliy qonunchilik tizimida LegalTech vositalarini tartibga soladigan asosiy qonunchiliklar bo'yicha bo'shliqlar aniqlandi. Misol uchun, yuristlarga o'xshaydigan xizmat ko'rsatadigan aniq bir sun'iy intellekt yoki huquqiy tizimning huquqiy maqomi mavjud emas. Buning natijasida AI huquqiy ma'lumotni notug'ri bersa, uning javobgarligi kimning zimmasida – AI mi? Sun'iy intellektni yaratgan shaxsmi? yoki foydalanuvchimi? Ko'rib turganimizdek buning huquqiy maqomini belgilashga qiyinchiliklar mavjud.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatib o'tadiki, shaxsga doir ma'lumotlar LegalTech sohasida to'laligicha tartibga solinmagan. **«Shaxsga doir ma'lumot to'g'risida»**gi Qonun mavjud bo'lsa-da, AI tizimi bilan bog'liq kamchiliklar mavjud. Jumladan, AI tizimi ma'lumotlarni to'g'ri yig'ish, moslash hamda tartibga solish bo'yicha hali moslashmagan. Bu esa ayniqsa sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashida katta xavf tug'iladi.

Xalqaro tajribalar bilan ishlangan tadqiqotning natijasi esa raqamli transformatsiya sohasi jihatidan ilg'orlayotgan davlatlar (Buyuk Britaniya, AQSH, Estoniya, Albaniya va boshqalar) LegalTech sohasini tartibga solish uchun maxsus etik standartlarini va boshqa tizimlarni allaqachon yo'lga qo'ygan. Ammo O'zbekiston tadqiqot natijasiga ko'ra ancha orqada qolmoqda.

Umuman olganda, natijalar O'zbekiston Respublikasi LegalTech vositalarini tartibga solish bilan bog'liq potentsiallik mavjudligi bilan birga, hozirda mavjud bo'lgan milliy qonunchilik bazasi hamda amaliyoti to'liq shakllanmaguncha to'liq tayyor emas.

Muhokama

Yuqoridagi natija qismidan bizga ma'lumki, milliy qonunchilikda LegalTechni tartibga solish masalasi O'zbekiston kelajagi uchun strategik usul hisoblanadi. Ilg'or davlatlarning bu borada amalga oshirgan ishlaridan ko'rinib turibdiki, LegalTechni tartibga solish nafaqat yuridik xizmatlarning sifatini oshiradi, balki davlat boshqaruvida ham o'zining sezilarli o'rniga ega bo'ladi, ya'ni davlat



boshqaruvining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Misol uchun, «**Tuzuk AI**» platformasi kabi rivojlangan sayt yaratilishi davlat siyosatida o'z o'rnini topadi. Ya'ni davlatda fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini hamda **shaxsga doir ma'lumotlarini** uning javobgarlik mohiyatini sifatli hamda izchil o'rgana oladilar.

O'zbekiston Respublikasi uchun milliy qonunchilikda LegalTechni tartibga solish uchun bir nechta taklif yo'nalishlari mavjud.

Birinchidan, LegalTech tizimiga huquqiy maqom belgilanishi lozim. Bunga xalqaro davlatlardan andoza sifatida Buyuk Britaniya davlatini olsih mumkin. Chunki aynan Buyuk Britaniyaning huquq tizimiga AIni integratsiya qilish orqali AI yuridik maslahatchilariga aniq etik me'yorlar, xavfsizlik talablari hamda linsenziyalash tartibi joriy qilingan. Bu tizimni O'zbekistonga olib kirish orqali davlatning salohiyati har jihatdan yanada oshadi.

Ikkinchidan, shaxsga doir ma'lumotlarni qonunchilikda LegalTech faoliyat tizimiga yanada moslashtirish lozim. Chunki LegalTech shaxsga doir ma'lumotlarda o'zining tizimida katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi bilan ishlaydi. Bu esa ma'lumotlar notug'ri saqlansa, jiddiy xavf-xatarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Aynan bu jihatni Yevropa Ittifoqining **GDPR** modeli eng samara bera oladigan mexanizm hisoblanadi. Aynan mana shu model O'zbekiston qonunchiligiga olib kirilsa, LegalTech uchun mustahkam baza bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, LegalTech sohasining rivojlanishi uchun malakali kadrlarni tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Toshkent davlat yuridik universiteti, TATU, INHA va boshqa universitetlarda Legal Informatika, LegalTech hamda AI huquqi kabi modullar qo'shilishi kerak. Xalqaro mutaxassislar bilan hamkorlik asosida o'quv dasturi ishlab chiqish, AI-huquqshunoslarni tayyorlash, AI etikasi haqida treninglar o'tkazilishi lozim.

To'rtinchidan, milliy qonunchilik bazasiga aynan maxsus LegalTechni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi hamda hujjat mavjud emas. Mazkur hujjatni Xalqaro tajriba hamda boshqa davlatlarning qonunchiligidan andoza olgan holda maxsus «**LegalTech to'g'risida**»gi qonunni yaratish maqsadga muvofiqdir. Zero,



mazkur hujjat yaratilishi asnosida yangi baza shakllanishi hamda xavfsizlik jihatidan sifatli hamda mustahkam bo'lish imkonini yaratadi.

Yakuniy muhokama shuni ko'rsatadiki, milliy qonunchilik tizimiga LegalTech vositalari O'zbekiston uchun keng imkoniyatlarni yaratadi, biroq ularning xavfsiz, tartibli va samarali qo'llanilishi uchun kompleks yondashuv zarur. Bu yo'nalishda xalqaro tajribadan foydalanish, ichki normativ bazada mavjud bo'shliqlarni to'ldirish hamda malakali kadrlar tayyorlash eng ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

Xulosa

Tadqiqotdan shunday xulosa yaratish mumkin, LegalTech vositalari O'zbekistonda huquqiy xizmatlar sifatini oshirish va sud tizimini yaxshilash uchun qulay vosita hisoblanadi. Ammo mavjud qonunchilik tizimi sun'iy intellekt, shaxsiy ma'lumotlar va boshqa sohalarmi tartibga solish uchun hali yetarli emas. Xalqaro tajriba, xususan Buyuk Britaniya, AQSH, Estoniya va Albaniya misolida LegalTechni tartibga solishda aniq yondashuv zarur. O'zbekiston uchun asosiy zaruriyat shundan iboratki, LegalTech huquqiy maqomini belgilash, ma'lumotlar xavfsizligini oshirish, yangi tizimini yaratish hamda kadrlarni rivojlantirish. Shu yo'l orqali LegalTech butun mamlakatda huquq tizimini raqamli rivojlanishida muhim omil bo'lib kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. DAVID FREEMAN ENGSTROM + & JONAH B. GELBACH + (March, 2021). ARTICLE: LEGAL TECH, CIVIL PROCEDURE, AND THE FUTURE OF ADVERSARIALISM. University of Pennsylvania Law Review, 169, 1001. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=analytical-materials&id=urn%3acontentItem%3a62XB-6XX1-JNS1-M00X-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>
2. Salmerón-Manzano, E. (2021). Legaltech and Lawtech: Global Perspectives, Challenges, and Opportunities. *Laws*, 10(2), 24. <https://doi.org/10.3390/laws10020024>



3. Ryan Whalen, Defining legal technology and its implications, International Journal of Law and Information Technology, Volume 30, Issue 1, Spring 2022, Pages 47–67, <https://doi.org/10.1093/ijlit/eaac005> [Google scholar]
4. Hook, A., Nyatanga, L., Canepa, C., & Shaw, G. (2019). *The use and regulation of technology in the legal sector beyond England and Wales*. Legal Services Board.
<https://www.legalservicesboard.org.uk/wp-content/uploads/2019/07/International-AH-Report-VfP-4-Jul-2019.pdf>
5. Law Society Journal. (2022). *Regulating LegalTech: Should we, and if so, how?* <https://lsj.com.au/articles/regulating-legaltech-should-we-and-if-so-how/>
- 6 Baxtiyor o'g'li, D. O. (2025). ELEKTRON TIJORATDA MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO TAJRIBA. *SHOKH LIBRARY*, 1(10)..
<https://wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/4905/5342> [Google scholar]
7. O'zbekiston qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // Elektron raqamli imzo to'g'risida <https://lex.uz/docs/-6234904>
8. O'zbekiston qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // Kiberxavfsizlik to'g'risida <https://lex.uz/docs/-5960604>